

17-dars. Bo'luvchilar va karralilar



1. Har bir qatordagi **ortiqcha sonni** toping.

- a) 346 234 562 435 898
- b) 8 008 4 444 3 072 5 542

- Bu qatorlardagi sonlarda qanday umumiylik bor?
- Ular nimasi bilan farq qiladi?



2. **24** sonining **bo'luvchilari** to'plamini toping:

- 2 5 12 24 9 4 1 8 15 6 7

Bo'luvchi – bo'linuvchi qoldiqsiz bo'linadigan son.

bo'luvchi
↓

karrali son → 15 : 3 = 5 ← natija

Karrali son – bo'luvchiga qoldiqsiz bo'linadigan bo'linuvchi.

- **5** ga karrali sonlar [5, 10, 15, 20, 25, ...]
- **20** sonining bo'luvchilari [1, 2, 4, 5, 10, 20]



3. **15 ga karrali** sonlarni ayting: 45 60 25 30 50



4. Berilgan sonlarning **bo'luvchilarini** ayting: 45 56 32 100 88



5. Tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshiring.

- a) $8\,790 \cdot 34 - 126\,000 : 210 \cdot 100$ son $(72 - 67) \cdot 12$ **ga karrali**;
- b) $(1\,760 - 1\,280) : 24$ son $(76\,000 + 35\,000) : (1\,830 + 1\,870)$ sonining **bo'luvchisi** bo'ladi.



6. Savollarga javob bering.

- a) **12** sonining qanday **bo'luvchilari** bor?
- b) **15** sonining nechta **bo'luvchisi** bor?
- d) Qaysi son **har qanday natural sonning bo'luvchisi** bo'lishi mumkin?



7. Ikki yil avval bolalar oromgohlarida 697 340 nafar bola dam oldi. O'tgan yili esa ikki yil avvalgiga qaraganda 238 450 nafar ko'p bola dam oldi. Bu yil o'tgan yili dam olgan bolalardan ikki baravar kam bola dam oldi. Bu yil oromgohlarda necha nafar bola dam olgan?



8. Tenglamalarni yeching.

- a) $16\,000 + 45\,000 : y = 19\,000$
- b) $32\,800 : (1\,800 - x) = 410$



9. Uch nafar baliqchi 18 ta baliq tutib, baliq sho'rva pishirmoqchi bo'ldi. Birinchisi sho'rva uchun 1 ta, ikkinchisi 3 ta, uchinchisi esa 5 ta baliq berdi. Shundan so'ng ularning har birida teng miqdorda baliq qoldi. Har bir baliqchi nechtdan baliq tutgan?



10. Tenglamalarni yeching. Qaysi ildiz **10 ga** bo'linadi?

- a) $2\,365 + x \cdot 8 = 8\,000 - 3\,635$
- b) $78\,000 : y + 2\,805 = 3\,127 + 1\,678$

11. **Daryo oqimining tezligi** uning turli qismlarida **turlicha** bo'ladi. Tog'li hududda sol 9 soatda 45 km, tekislikda esa xuddi shu vaqtda 27 km suzib o'tdi. Tekislikda daryo oqimining tezligi qanchaga kamaygan?

